



ANALYSIS OF THE THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS AND DOCTRINAL APPROACHES TO LEGAL ASSESSMENT IN PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Zuhrakhon Togaymurodova

Independent Researcher

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: private international law, legal characterization, qualification, lex fori, lex causae, autonomous qualification, primary qualification, secondary qualification, judicial precedent, conflict of laws rule.

Received: 09.09.26

Accepted: 10.09.26

Published: 11.09.26

Abstract: This article examines the theoretical and legal foundations of legal characterization (qualification) in private international law, and its major doctrinal approaches. A comparative evaluation between the traditional four-stage model and the functional two-stage model is conducted. Key doctrinal theories — lex fori, lex causae, and autonomous qualification — are analyzed through seminal judicial precedents and international instruments. In conclusion, concrete recommendations are proposed to amend Article 1159 of the Civil Code of Uzbekistan and incorporate functional qualification mechanisms.

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA HUQUQIY BAHO BERISHNING NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI VA DOKTRINAL YONDASHUVLAR TAHLILI

Zuhraxon Tog'aymurodova

Mustqil tadqiqotchi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xalqaro xususiy huquq, huquqiy baho berish, kvalifikatsiya, lex fori, lex causae, avtonom kvalifikatsiya, birlamchi kvalifikatsiya, ikkilamchi kvalifikatsiya, sud pretsedenti, kollizion norma.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquqda huquqiy baho berish (kvalifikatsiya) institutining nazariy-huquqiy asoslari, uning asosiy doktrinal yondashuvlari tadqiq etiladi. Kvalifikatsiya jarayonining an'anaviy to'rt bosqichli va funksional ikki bosqichli tuzilmasi qiyosiy baholanadi. Doktrinadagi lex fori, lex causae va avtonom

kvalifikatsiya nazariyalari klassik sud pretsedentlari va xalqaro unifikatsiyalashgan hujjatlar misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot xulosasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1159-moddasini takomillashtirish hamda funksional kvalifikatsiya va moslashtirish mexanizmini joriy etishga doir takliflar ilgari suriladi.

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ И ДОКТРИНАЛЬНЫХ ПОДХОДОВ К ПРАВОВОЙ ОЦЕНКЕ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ

Зухраhon Тогаймуродова

Независимый исследователь

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: международное частное право, правовая оценка, квалификация, *lex fori*, *lex causae*, автономная квалификация, первичная квалификация, вторичная квалификация, судебный прецедент, коллизонная норма.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретико-правовые основы института правовой оценки (квалификации) в международном частном праве и его основные доктринальные подходы. Проводится сравнительный анализ традиционной четырехступенчатой и функциональной двухступенчатой моделей. Доктринальные теории *lex fori*, *lex causae* и автономной квалификации анализируются на примерах классических судебных прецедентов и международных актов. В заключении выдвигаются предложения по совершенствованию статьи 1159 Гражданского кодекса Республики Узбекистан и внедрению механизма функциональной квалификации.

Kirish. Xalqaro xususiy huquqda huquqiy baho berish instituti chet el elementi bilan murakkablashgan transchegaraviy fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishning eng birlamchi, fundamental va hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Huquqiy kvalifikatsiya — bu muayyan hayotiy vaziyat va ishning faktik holatlarini mavjud kollizion-huquqiy toifalarga ajratish va ularga yuridik maqom berish orqali qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq normasini aniqlash jarayonidir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1159-moddasiga binoan, yuridik tushunchalarga huquqiy baho berish sud yoki boshqa vakolatli organ tomonidan, agar qonunda

boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, nizo ko'rib chiqilayotgan davlat sifatida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga (lex fori) muvofiq amalga oshiriladi.

Biroq dunyo davlatlarining huquq tizimlari turlicha rivojlanish yo'lini bosib o'tgan bo'lib, tashqi jihatdan o'xshash ko'ringan institutlar turli yurisdiksiyalarda mutlaqo boshqacha moddiy-huquqiy mazmun va oqibatlarga ega bo'ladi. Mashhur huquqshunos M.Issad ta'kidlaganidek, "kvalifikatsiya — bu kollizion normaga eshik ochuvchi kalitdir". Kvalifikatsiya bosqichida yo'l qo'yilgan xatolik tegishli bo'lmagan kollizion normaning tanlanishiga va oqibatda nizo bo'yicha noto'g'ri moddiy huquqning qo'llanilishiga olib keladi. Mazkur maqolaning maqsadi huquqiy baho berishning nazariy-doktrinal modellarini qiyosiy tahlil qilish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kvalifikatsiya muammosi ilk bor XIX asr oxirida nemis olimi Frans Kan (1891-yil) tomonidan "yashirin kolliziyalar" va fransuz olimi Etyen Barten (1897-yil) tomonidan "kvalifikatsiyalar to'qnashuvi" sifatida nazariy jihatdan asoslab berilgan. Nemis professori X.Shak ta'kidlaganidek, "kim kvalifikatsiyani amalga oshirsa, u natijani oldindan belgilab beradi".

Huquqiy baho berish jarayonini bosqichlarga ajratishda an'anaviy to'rt bosqichli model (faktlarni aniqlash, munosabatni kvalifikatsiya qilish, kollizion normani tanlash, qo'llaniladigan huquqni belgilash) ko'proq tashqi-protsessual ketma-ketlikni aks ettiradi. Ammo ushbu model munosabatda noma'lum institutlar yoki yashirin kolliziyalar mavjud bo'lganda yetarli darajada samaradorlik bermaydi. Aksincha, L.P.Anufriyeva va V.A.Kanashevskiy tomonidan ilgari surilgan ikki bosqichli model — birlamchi kvalifikatsiya (kollizion normaning hajmini talqin qilish va tegishli toifaga kiritish) hamda ikkilamchi kvalifikatsiya (qo'llaniladigan lex causae doirasida muayyan institutlarning asl mazmunini aniqlash) modellari kollizion tahlilning ichki mohiyatini ancha aniqroq ifodalaydi.

Kvalifikatsiyaning uchta asosiy doktrinal yondashuvlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, birinchidan, lex fori – ya'ni sud joylashgan davlat huquqini qo'llash nazariyasi sudya uchun qulay va jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo'lsada, xorijiy va notanish institutlar mohiyatini buzib ko'rsatishi va "oqsoq munosabatlar"ni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga klassik misol sifatida, Ogden v. Ogden (1908) ishi ishini keltirishimiz mumkin, unda ingliz sudi nikoh qurishda ota-ona roziligini faqat o'zining lex fori qoidasi bo'yicha shakliiy talab deb baholashi oqibatida taraflarning nikohi Fransiyada haqiqiy emas, Angliyada esa haqiqiy deb topilgan. Ikkinchidan, lex causae nazariyasi – munosabat mohiyatini tartibga soluvchi huquqni qo'llashni nazarda tutadi va nazariya yuridik institutlarning o'zi shakllangan huquq tizimidagi yaxlitligini ta'minlaydi. Ushbu nazariyaning yorqin misoli, Anton v. Bartolo (1889) ishi bo'yicha fransuz sudi beva ayolning

eridan qolgan mulkini taqsimlashda ayolning talabini o'z huquqi bo'yicha "meros" deb emas, balki nikoh tuzilgan joy qonuniga ko'ra Malta huquqi bo'yicha "er-xotinning umumiy mulk huquqi" sifatida kvalifikatsiya qilib, adolatli natijaga erishgan. Uchinchidan, Ernst Rabel tomonidan 1931-yilda ilgari surilgan avtonom kvalifikatsiya nazariyasi tushunchalarni bitta milliy tizimga bog'lamasdan, qiyosiy huquqshunoslikning universal prinsiplari hamda xalqaro konvensiyalar asosida sharhlashni nazarda tutadi. Ushbu nazariya Yevropa Ittifoqining "Rim I", "Rim II" reglamentlarida hamda 1980-yildagi Vena konvensiyasida o'zining to'liq amaliy tasdig'ini topgan.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, transchegaraviy nizolarni adolatli hal etish faqat qat'iy lex fori yondashuviga tayanib qolmasdan, vaziyatga qarab lex causae va avtonom kvalifikatsiya nazariyalaridan foydalanishni talab qiladi. Amaldagi Fuqarolik kodeksining 1159-moddasida lex fori ustuvor qoida sifatida belgilangan bo'lib, xorijiy institut O'zbekiston huquqiga noma'lum bo'lgan taqdirdagina chet el huquqiga murojaat qilishga ruxsat etiladi. Biroq akademik M.H.Rahmonqulov ta'kidlaganlaridek, xorijiy institutlarni milliy andozalarga sun'iy ravishda majburan moslashtirish huquqiy deformatsiyaga olib keladi.

Germaniya, Shveytsariya, Belgiya va Yaponiya kabi davlatlar amaliyotida keng qo'llaniladigan funksional ekvivalentlik nazariyasi ushbu ziddiyatni bartaraf etishning eng samarali yo'lidir. Ushbu nazariyaga binoan, sudya chet el institutining nomlanishiga emas, balki uning o'z huquqiy tizimida bajaradigan iqtisodiy-ijtimoiy funksiyasiga qarab baho berishi lozim. Bu borada ikki bosqichli kvalifikatsiya modeli sudlarga birlamchi bosqichda to'g'ri kollizion normani topish, ikkilamchi bosqichda esa xorijiy huquqning asl mazmunini manbalar asosida sharhlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, xalqaro savdo va investitsiya munosabatlarida nizo yuzaga kelganda bitta yuridik fakti bir nechta kollizion toifalarga sun'iy ajratish amaliyoti jiddiy protsessual chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, xorijiy investor bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiquvchi da'volarda da'vo muddati masalasi ba'zi tizimlarda moddiy huquq, ba'zilarida esa protsessual huquq sifatida tavsiflanadi. Agar sudya birlamchi bosqichdayoq xorijiy huquqning tabiatini to'g'ri baholamasa, da'vo muddati bir yurisdiksiyada muddati o'tgan deb bekor qilinishi, boshqasida esa kuchida qolishi mumkin, buning oqibatida esa oqsoq munosabat yuzaga keladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun kollizion qonunchilikda yordamchi va qo'shimcha masalalarni asosiy munosabatga tatbiq etiladigan huquq asosida kvalifikatsiya qilish tamoyilini qat'iy mustahkamlash zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Xulosa. Xalqaro xususiy huquqda yuridik tushunchalarga huquqiy baho berish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining xalqaro integratsiyalashuvi, transchegaraviy fuqarolik muomalasi barqarorligi hamda mamlakatimizning

investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning eng muhim kafolatidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaldagi qonunchilikda qat'iy sud davlati huquqi (lex fori) ustuvorligining saqlanib qolishi zamonaviy xorijiy institutlar (masalan, trust) va notanish moddiy-huquqiy atamalarni milliy qoliplarga sun'iy ravishda moslashtirish huquqiy deformatsiyaga olib kelmoqda. Oqibatda esa bitta huquqiy fakt bir necha yurisdiksiyada turlicha talqin qilinib, "yashirin kolliziyalar" va "oqsoq munosabatlar" kabi tizimli ziddiyatlar yuzaga kelmoqda.

Mazkur konseptual va amaliy bo'shliqlarni bartaraf etish, shuningdek, milliy kollizion tizimni ilg'or xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida qonunchilik taklif ilgari suriladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga 1159¹-moddani ("Huquqiy tushunchalarni kvalifikatsiya qilish va moslashtirish") qo'shish. Ushbu moddada agar ma'lum bir huquqiy tushuncha O'zbekiston Respublikasi huquqiga noma'lum bo'lsa yoxud turli huquq tizimlarida shaklan bir xil nomlanib, o'zining mazmuni va huquqiy oqibatlariga ko'ra farq qilsa, huquqiy baho berish taraflarning iqtisodiy maqsadi va ushbu institutning mohiyatidan kelib chiqib, uni tartibga soluvchi chet el huquqi qoidalari asosida funksional kvalifikatsiya qilinishini belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu normaning qonunchilikka kiritilishi sudyalarga munosabatning asl iqtisodiy-huquqiy mazmuniga tayangan holda to'g'ri kollizion normani tanlash, bitimlar haqiqiylikini ta'minlash hamda xorijiy investorlar va fuqarolarning qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cheshire, A. H. (1974). Private International Law (9th ed.). Eastern Law House Private Ltd., 41 p.
2. Lunts, L. A. (2002). Курс международного частного права: Общая часть. Moskva: Spark, 247 s.
3. Issad, M. (1989). Международное частное право. Moskva: Progress, 112 s.
4. Kahn, F. (1891). Gesetzeskollisionen. Ein Beitrag zur Lehre des internationalen Privatrechts. Jherings Jahrbücher für die Dogmatik des heutigen römischen und deutschen Privatrechts, 143 s.
5. Rabel, E. (1958). The Conflict of Laws: A Comparative Study (2nd ed., 4 vols.). University of Michigan Press.
6. Schack, H. (2001). Международное гражданское процессуальное право: учебник. Moskva: BEK, 560 s.
7. Robertson, A. H. (1996). Characterization in the Conflict of Laws (4th ed.). University of Toronto Press.

8. Rustambekov, I. R. (2018). Международное частное право Республики Узбекистан: учебное пособие. Tashkent: ТГЮУ, 87 s.

9. Rahmonqulov, H. R. (2007). O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi: umumiy qism. Toshkent: Adolat, 312 b.